

O'ZBEKISTONDA SIYOSIY PARTIYALARING VUJUDGA KELISHI VA TAKOMILLASHUVI.

Sherdanova Yulduz

*Termiz Davlat pedagogika institute Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz hududida siyosiy partiyalar paydo bo'lishi va ularning taraqqiyot bosqichlari haqida fikr mulohazalar yuritiladi. Siyosiy partiyalarining shakllanish jarayonlari ba'zi mualliflar fikr va mulohazalari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: siyosiy partiya, syosiy harakat, hokimiyat, siyosiy hokimiyat, ma'muriy buyruqbozlik , ijtimoiy fikr.

Kirish

Jamiyat hozirgi darajada birlashuvi uchun uzoq tarixiy bosqichni boshdan kechirgan. Bu davr mobaynida insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabbatlar soddalikdan murakkablik tomon o'zgarib borgan. Odamlar o'rtasidagi dastlabki guruuhlar jamoaviylik ustun bo'lgan bo'lsa vaqtlar o'tishi bilan harbiy, iqtisodiy, madaniy, siyosiy kabi tarmoqlarga ajralib, bir butunlikni tashkil etgan. Davlatlar tashkil topib, ular boshqarish murakkablashib borishi bilan asta-sekinlik bilan siyosiy jarayonlar ham faollashib brogan. Davlatlarni boshqarishdagi siyosiy kuchlarning fikrlari xilma-xilligi asosida siyosiy partiyalar ham paydo bo'la boshlagan.

MUHOKAMA

Siyosiy partiyalar- jamiyatdagi guruuhlar, sinflar, turli qatlamlar manfaatlarini, siyosiy irodasini ifodalovchi siyosiy tashkilotdir. Siyosiy partiyalar zamonaviy jamiyatning asosiy institutlaridan biri, shuningdek, uning siyosiy tizimining eng muhim bo'g'ini, chunki ular davlat hokimiyatini amalga oshirish jarayonida va jamiyatning siyosiy madaniyatini shakllantirish jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Siyosiy partiya – bu ma'lum aholi qatlamlarining yoki ijtimoiy birlikning manfaatlarini, qiziqishlarini, siyosiy intilish va talablarini ifodalovchi hamda ularni real hayotda amalga oshirish uchun saylovlarda qatnashish orqali davlat boshqaruvida ishtirok etish maqsadini ko'zlovchi, ixtiyoriy ravishda uyushgan fuqarolarning nodavlat tashkilotidir.

Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir.[2:337-I]

Tarixda ilk siyosiy partiyalar XVII-XVIII asrlarda Yevropada paydo bo'lgan deb hisoblansada, ammo antik davrdan boshlab siyosiy partiyalar vazifasini bajaruvchi

tashkilotlar, jamoalar mavjud bo'lgan. Rimda Optimatlar va Populyarlar, Britan orollarida Yorklar va Lankerlar kabi jamoalar bo'lib, ular qarindoshchilik an'analariga asoslangan edi. Siyosiy partiyalar tashkil topishida qarindoshlik aloqalari kata ahamiyatga ega bo'lgan. Osiyo davlatlarida hozirgi kunda ham siyosiy partiyalar shakllanishida bunday aloqalar o'z ahamiyatini yo'qtgani yo'q.

Siyosiy partiyalarning ilk namunalari 19-asrda Yevropa va AQShda kuzatilgan. Parlamentar tizim uzoq vaqt mavjud bo'lishiga qaramay, 1795-1800 yillarda AQShda Respublikachilar partiyasi nomi bilan birinchi siyosiy partiya tashkil etilgan. Angliyadagi birinchi siyosiy partiya 1877 yilda tashkil etilgan Milliy liberal federatsiya edi.[3:76-77]

Markaziy Osiyoda XIX asr oxiri XX asr boshlarida jadidlarning xalqni siyosiy ongini oshirish, ma'rifatni yoyish, mustaqil milliy davlat tuzish kabi sa'y-harakatlari siyosiy partiyalar tuzish kerakligini ko'rsatdi. Chor Rossiyasining bunday harakatlarga qarshiligi tufayli 1917-yilgacha o'lkamizda yetuk siyosiy partiyalar shakllanmadi. Xalqni ma'rifatga chorlagan siyosiy tashkilot rahbarlari va a'zolari qatag'on qilindi. Bu davrda "Milliy Ittihod", "Yosh Xivaliklar", "Yosh Buxoroliklar", "Sho'roiy islomiya", "Sho'roiy ulamo" kabi ko'plab siyosiy tashkilotlar tuzilgan edi.

"Milliy ittihod" yashirin tashkiloti (1920- 1925) Munavvarqori va Sadriddinxon Sharifxo'jayev tashabbusi bilan Toshkentda tuzilgan. Tashkilotning maqsadi Turkistonda milliy mustaqil davlat berpo etish hisoblangan.

1910 -1920-yillarda "Yosh buxoroliklar" partiyasi deb nomlangan partiya ham o'z faoliyatini yuritgan. Sadriddin Ayniy, Usmonxo'ja, Fayzulla Xo'jayev va boshqa buxorolik ziyorilar ushbu tashkilotning tashabbuskorlari edi. Maqsadi o'lkada maorifni rivojlantirish bo'lgan.

Yosh xivaliklar 1914-yilda Polvoniyoz hoji Yusupov tashabbusi bilan tashkil topgan. Bu harakatning maqsadi:

- Xon hokimiyatini cheklash;
- Konstitutsiyaviy manarxiya o'rnatish;
- Xalq orasida maorif tizimini rivojlantirish kabi ko'plab g'oyalar mujassamlashgan edi.

Taniqli tadqiqotchi Boboxo'jayev bu holat haqida shunday deydi: O'rta Osiyolik jadidchilarning ko'pchiligi orzu-havasga berilib, Turkiyadagi panturkistlar yo'lidan bordilar. Turklarning Ittifoq va Taraqqiyot partiyasi misolida jadidchilar Buxoroda Yosh Buxoroliklar, Xivada Yosh Xivaliklar, Turkistonda Yosh Musulmonlar deb nomlandilar.[4:13]

Usmonlilar imperiyasidagi jadidchilik harakatining qarashlari ta'sirida bo'lgan bunday faoliyatlar "Yosh Usmonlilar"ga nishbatan Buxorodo bu harakat "Yosh Buxoroliklar" deb nomlanishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari, Buxoroda 1900-yillarning boshidan mavjud bo'lgan jadidchilik harakati 1910 yildan boshlab Eron va

Turkiyadagi konstitutsiyaviy monarxiya hukumatlari ta'sirida “Yosh Buxoroliklar” nomi bilan tashkiliy harakatga aylandi.[5:65]

Inqilob yillarida Sovet organlari bilan ziddiyatlar bo'lmasada vaqtlar o'tishi bilan milliy siyosiy harakatlarni tugatish sovet rejimining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Kommunistik partiya dinlarga nisbatan tolerantlik munosabatida bo'limgan. Hokimiyat mustahkamlab olingandan keyin din va dindorlarga nisbatan keskin qarshilik harakatlari olib borildi.

Inqilobning birinchi notinch yillarida mahalliy inqilobchilar va bolsheviklar o'rtasidagi kon'yunkturaviy hamkorlikka qaramay, ular hech qachon din bo'yicha umumiy til topa olmadilar. Jadidchilar o'zlarining mafkuraviy infratuzilmasini o'z e'tiqodlarini modernizatsiya qilish asosida qurdilar. Ular o'z e'tiqodlaridan butunlay voz kechishni niyat qilishmagan. Bolsheviklarning fikricha, barcha dinlar insonning inson tomonidan ekspluatatsiya qilinishini yashiradigan va ekspluatator sinflarga mafkuraviy niqob bo'lgan mafkuraviy niqob bo'lgan. Ekspluatatsiya yo'qolsa, din ham yo'qoladi. Kommunizm quradigan yangi dunyoda g'ayritabiyy narsalarga joy yo'q edi.

Bunday dunyo barcha ayollar va erkaklar mustamlakachilik va zulm munosabatlaridan, o'zlarini anglab etishlariga to'sqinlik qilayotgan kishanlardan xalos bo'lganda mumkin edi.[7:80]

Sho'ro hukmronligi davrida ko'ppartiyaviylikka yo'l qo'yilmadi va yagona kommunistik partiya faoliyat yuritdi. O'zbekiston SSR Kommunistik partiyasi KPPS ning tarkibiy qismi hisoblangan. XX asr o'zbek xalqi boshidan o'tgan ko'plab fojealar O'zbekiston SSR Kommunistik partiyasi faoliyati bilan ham bevosita bog'liqlikda yuz berdi. Mutloq hokimiyatga ega bo'lgan ushbu partiya xalq manfaatini himoya qilishdan ko'ra, Markazdan olgan topshiriqlarni bajarishga ko'proq moslashgan edi. Bunday yondashuv nafaqat bizning davlatga balki butun ittifoq hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Ma'muriy buyruqbozlikga asoslangan hokimiyat tizimi kommunistik partiyadan foydalangan holda demokratik qarashlarni bug'ib qo'yari edi. O'sha davrda xalq manfaatidan ko'ra davlat manfaatlari ustun ahamiyat kasb etar edi. Xalq manfaatini himoya qilish Communist partiya g'oyalariga mos kelmas edi. Chunki kommunistik partiya asosiy qoidalaridan biri Sovet davlati hududida istiqomat qiladigan millatlarni yagona sovet millatiga aylantirish edi. Shuning uchun ham xalq dardiga qulq solish, millatchilik belgisi sifatida qaralar edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan kiyin Kommunistik partiya o'z faoliyatini tugatdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishmasdan ro'yxatdan o'tgan ilk siyosiy partiya

“Er demokratik” partiyasi bo'lib 1990-yilda mustaqillikni qo'llab-quvvatlovchi partiya sifatida shakllangan edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin suveren demokratik respublika barpo etishni maqsad qilib, Ko'ppartiyaviylikni shakllantirishga e'tibor qaratdi. Konstitutsiya va qonunlarda ham bu tamoyilni mustahkamlab qo'ydi.

Bu holat demokratik yo'lni tanlagan davlatlar uchun demokratiyaning asosiy sharti hisoblanadi. Chunki jamiyat taraqqiyotida fikrlar xilma-xilligi asosiy mezon hisoblanadi. Ko'ppartiyaviylik jamiyat hayotida ikki yoki undan ortiq partiyaning faol harakatlarida namayon bo'ladi.

Tadqiqotchi olim Q.Jo'raev O'zbekistonda siyosiy partiyalarning shakllanishini quyidagi ikki davrga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi:

1) bir partiyalilik, siyosiy diktatorlikdan qutulish, muqobillik asosidagi Prezident saylovlari, yuqori darajadagi davlat hokimiyati tuzilmalarini yangilash davri bo'lgan 1991–1994 yillar;

2) jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlarining kuchayishi uchun muhim bosqich bo'lgan, ko'ppartiyaviylikka tayangan jamiyatning huquqiy fundamentiga asos solingan, qonunlar qabul qilingan, yangi partiyalar tuzilgan 1995–1999 yillar. [6:19]

O'zbekiston Mustaqillikka erishgandan kiyin quyidagi nomdagi partiyalar tashkil topdi: Xalq demokratik partiyasi, Vatan taraqqiyoti partiyasi, Fidokorlar demokratik partiyasi, Adolat sotsial demokratik partiyasi, Milliy tiklanish demokratik partiyasi, Lebiral-demokratik partiyasi, Ekologik partiya kabi siyosiy partiyalar shakllandi.

Strategiyamizning birinchi ustuvor yo'naliш „Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'naliшlari” – sifatida nomlangan bo'lib, uning birinchi bandi „Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish:[1:Nо6] - deb belgilanishi ham sohada siyosiy partiyalar tizimini rivojlantirish va davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning ro'lini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev siyosiy partiya raxbarlari bilan uchrashuvda shunday fikr bildiradi: “Har qanday siyosiy partiya zamon bilan hamnafas bo'lib uning o'tkir talablariga javob bergen taqdirdagina siyosiy kuch sifatida yashay oladi.”

Yuqoridagi siyosiy partiyalarning dastur va nizomlarida xalq manfaatlarini himoya qilishni asosiy maqsad, vazifa sifatida e'tirof etgan. O'zbekiston mana shunday uzoq tarix davomida ko'p partiyaviylikka asoslangan erkin va demokratik davlat qurish imkoniyatiga ega bo'ldi. Buni amalga oshirish uchun hozirgi kunda har tomonlama ijobjiy ishlar olib borilmoqda.

NATIJALAR

Davlatimiz uzoq tarixi davomida ijtimoiy-siyosiy hayotida ko'plab o'zgarishlar sodir bo'lgan. Lekin diyorimizdagi dastlabki siyosiy partiyalar XX asr boshlarida paydo bo'lgan. Bu siyosiy partiyalarni ko'pincha ijtimoiy-siyosiy harakatlar deb ham e'tirof etamiz. Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilgan holda diyorimizdagi siyosiy partiyalarning shakllanishini quyidagicha izohlasak maqsadga muofiq bo'ladi:

1-davr: Chor Rossiyasi davridan O'zbekiston SSR tashkil topgunga qadar;

2-davr: O'zbekiston SSR davlati

3-davr: Mustaqillik arafasidagi shakllangan harakatlar va partiyalar;

4-davr: Qonun chiqaruvchi hokimiyat bir palataali bo'lganda tuzilgan partiyalar;

5-davr: Oliy Majlis ikki palataga o'tgandan kiyin faoliyat yuritgan siyosiy partiyalar.

Bugungi kunda yurtimizda faoliyat yuritayotgan partiyalar ijtimoiy-siyosiy hayotda o'z pozitsiyalarini mustahkamlab bormoqdalar. Jamiat taraqqiyoti uchun ko'p partiyaviylik yo'lini tanlagan demokratik davlatimizda siyosiy partiyalarning g'oya va dasturlarini amalga oshirishi, saylov jarayonlarida tenglik, xolislik va ochiqlik tamoyillari asosida faol ishtirok etishlari, parlament va mahalliy vakillik organlarida fraksiyalarini shakllantirishlari va mamlakat siyosiy-ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishlari uchun barcha qonuniy asoslar yaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўрисида”ги Фармонига шарҳ // Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами. – 2017. – №6. 70-модда

2. “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi qonun Toshkent sh., 1996-yil 26-dekabr, 337-I-son

3. Öztekin, Ali, (2007), Siyaset Bilimine Giriş, 5. Baskı, Ankara, Siyasal Kitabevi.2007.

4. Babaxo'jayev Panturkizm: Imperializmning mafkuraviy boshqaruvi, Qizil O'zbekiston, “Pravda Vostaka” va “O'zbekiston ” birlashgan nashri, Toshkent 1954 yil.

5. Fayzulla Xo'jaev, Buxoro inqilobining tarixiy materiallari Fayzulla Xo'jaev hayoti va faoliyati. Yangi mulohazalari haqida,D. Alimova, Fan nashri, Toshkent, 1997.

6. Жўраев Қ. Ривожланган давлатларда кўп партияийликнинг шаклланиши – демократик тараққиётнинг муҳим омили сифатида (Франция сиёсий тажрибаси мисолида): Сиёсий фан. номз. дис.. – Тошкент,1999.

7. Adeeb Khalid, Religion and Politics in Islamic Central Asia after Communism, trans. Aslihan Tekyildiz.